

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

ZAMONAVIY O‘ZBEK ADABIYOTIDA NOVELLA JANRINING O‘ZIGA XOSLIGI

Dilbar Hasanova,
*O‘zbekiston Milliy universiteti
tayanch doktoranti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek adabiyotida novella janri, uning o‘ziga xos xususiyatlari o‘z aksini topgan. Yozuvchi Ahmad A‘zam ijodida novella janrining o‘rni tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: epik tur, kichik epik shakl (janr), novella, hikoya, syujet.

Аннотация. в этой статье отражена специфика и особенности жанра новеллы в узбекской литературе. Проанализирована место жанра новеллы в творчестве писателя Ахмада Аъзама.

Ключевые слова: эпический вид, малая эпическая форма (жанр), новелла, рассказ, сюжет.

Annotation. In this article, the genre of novella in Uzbek literature, to his own characteristic features are reflected. The role of the novella genre in the work of writer Ahmad A‘zam was analyzed.

Key words: Epic form, small epic form (genre), novella, story, plot.

Epik tur nihoyatda xilma-xil va rang-barang. Hayotni qamrash ko‘lami jihatidan epik janrlar D.Quronovning “Adabiyot nazariyasi asoslari” kitobida quyidagicha tasnif qilinadi:

“Kichik epik shakllar: latifa, masal, hikoyat, rivoyat, ertak, adabiy ertak, afsona, badia, etyud, ocherk, esse.

O‘rta epik shakllar: qissa (povest).

Katta epik shakllar: epos, epik doston, roman, epopeya” [1] kabi shakllar farqlanadi. Turli davrlarda bu masala turli xil tasnif qilinadi. Avvalo, yozuvchi ijod qilishdan oldin shu janrda yozaman, shu shaklda bo‘ladi degan o‘yda asar yozmaydi. Agar yozuvchi janr qoidalari qoliplariga o‘ralashib qolsa, yozishni ko‘zlagan maqsadi va niyati, tanlagan voqea va personajlari o‘zi istaganidek chiqmay qolishi mumkin. Asosiy masala, yozuvchining yuzaga chiqarishni ko‘zlagan g‘oyasi, uni ifoda qila olish mahoratiga bog‘liq. Zero, yozuvchi N.Eshonqul ta’kidlaganidek, “Janr – nisbiy tushuncha. Yozuvchi o‘z fikrini qaysi shaklda eplab ayta olsa, o‘sha uning janridir”[2]. Darhaqiqat, yozuvchi ta’kidlaganidek, janr nisbiy tushuncha sifatida asar yozish jarayonida yozuvchi uchun muhim omil emas.

Kichik epik janrlarni adabiyotshunos Y.Solijonov quyidagicha :“Pamflet, feleton, ocherk, novella, esse”[3] kabi turlarga ajratib tasnif qiladi. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, epik shakllar turli davrlarda turli xil tarzda tasniflangan. Biz tahlilga tortmoqchi bo‘lgan epik shakllardan biri novella janridir.

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

Adabiyotshunoslikka oid kitoblarda novella janri italyancha “yangi so‘z” degan ma‘noni anglatishi, hajm jihatdan hikoyadan ham kichikroq janr ekanligi, oz so‘z bilan ko‘p ma‘noga erishiladi degan fikrlar ta‘kidlangan. Avvalo, hajmning kichikligi mazmunga ta‘sir etmaydi. Novella mustaqil janr sifatida Italiyada yuzaga kelgan. Uyg‘onish davrining mashhur yozuvchilari Bokachcho, Saketti, Mazuchcholar yaratishgan. Novella va hikoya atamalarini sinonim deb biluvchilar, farqli deb hisoblovchilar ham yo‘q emas. Novella hikoyadan syujet qurilishining keskin rivojlanishi va o‘zgaruvchanligi bilan farqalanadi. Adabiyotshunos Y.Solijonov novellaga xos xususiyatlarni quyidagicha tasnif qiladi: “Konkret shaxs hayotiga oid voqealar ixcham, badiiy jihatdan mukammal va tugallangan shaklda aks ettirilishi, novellaning yakuniy xulosasi o‘quvchi qalbida portlash hodisasini vujudga keltirishi, personajlar miqdori o‘ta chegaralangan bo‘lishi, epik bayon bitta personaj hayoti bilan bog‘liq bo‘lishi, syujet kutilmagan boshlama va keskin, o‘tkir, dramatik taranglikka ega bo‘lishi kerak”[3]. Shuningdek, novella kichik hajmga katta davrga xos xususiyatlarni sig‘dira olishi va shunga mos holda voqeani lo‘nda, ixcham bayon etishga erishishi, syujet bitta muhim detal asosiga qurilishi bilan ajralib turadi. O‘zbek adabiyotida A.Qahhorning “O‘g‘ri”, “Anor”, S.Ahmadning “Qoplon”, Sh.Xolmirzayevning “Notanish odam” kabi asarlari novellaga misol bo‘la oladi. Zamonaviy adabiyotda X.Do‘stmuhammad, X.Sultonov, A.Yo‘ldoshev, A.A‘zam kabi yozuvchilarning ayrim asarlarini novella sifatida baholash mumkin.

Yozuvchi Ahmad A‘zamning “Vatan haqida yozishga kuchim yetmagan she‘rim”, “Noinsof Muso”, “Gul ko‘tarib ketayotgan erkak”, “Nima qilib qo‘ygan ekanman?”, “Almisoqdan qolgan Karim”, “Ketgan birov edi”, “Bir kam dunyo”, “O‘zim bilan o‘zim”, “Qulf tili”, “Odamoviga uch yoqlama qarash”, “Tugmachagul” kabi asarlari novella sifatida baholangan. Yozuvchi har bir asariga nom berishda, uning janrini ham o‘zi belgilab ketganligi yozuvchining yuqorida sanab o‘tilgan asarlarini novella sifatida aniq ayta olishimizga asos bo‘ladi. Ahmad A‘zam asarlari o‘zining psixologik originalligi, insonning ichki-kechinmalarini, ruhiy holatini aniq ifodalay olishi jihatidan ajralib turadi.

Yozuvchining “Nima qilib qo‘ygan ekanman?” nomli novellasi “Bugun ertalab betimni yuvayotib birdan ishga borgim kelmay qoldi” kabi kutilmagan syujet bilan boshlanadi. Har kuni bir zaylda ishga qatnab yurgan kishi birdaniga ishga bormay qolishi oqibatida kutilmagan vaziyatga tushib qoladi. Ishga bormay qolganiga xotini ham, bola-chaqasi ham, do‘stlari ham hayron. Kun uzog‘i har tomondan do‘stlari, aka-ukasi, qarindosh-u qishloqdoshlar, hamkasblar qo‘ng‘iroq qilishib “Nima qilib qo‘ydingiz?” deb xunob qilishdi. Qahrmonimiz esa o‘zining nima qilib qo‘yanini bilmay hayron.

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

- “O‘y, menga qarang, yana nima qilib qo‘ydingiz? – dedi dabdurustdan.

- Hech nima qilib qo‘ygan yo‘q, Xurshid, -dedim. – Nega bu hammalaring so‘raysizlar?

- Yana kimlar telefon qildi? - deb so‘radi Xurshid.

- O‘ntasi! – deb zarda qildim. Hammasi nima qilib qo‘ydingiz deydi!

- Ana, aytmadimmi? – dedi Xurshid. – Bir narsa qilib qo‘ygansizki, buni bitta men aytmayapman”[4] kabi suhbatlar asar qahramonining to‘satdan uyda qolishga qilgan qarorini burnidan chiqaradi. Qishloqdan ukalarining, ishdan ayolining yetib kelishi esa uni butunlay dovdiratib qo‘yadi. Yozuvchi asar qahramonining holatini shunday mahorat bilan tasvirlaydiki, novellani o‘qiyotgan kitobxon qahramonning asl qiyofasini ko‘z oldiga keltira oladi. Voqealar shunday keskin tus oladiki, hattoki ancha yillar oldin tanishgan uzoq tanishlar-u, boshliqlarigacha qahramonimizdan hol so‘rab qo‘ng‘iroq qilishadi, nima qilib qo‘yganiga qiziqishadi. Ammo qahramonimiz o‘zining nima qilib qo‘yganligini bilolmaydi, aksiga olib hech kim unga nima qilib qo‘yganini ham aniq aytmaydi. Bu holat asarda shunday tasvirlanadi: “Hammasi mendan boshqa birovning emas, mening o‘zimning nima qilib qo‘yganimni so‘rayapti, shunga javobni tug‘ilmagan, tug‘ilishi ham noma’lum bo‘lgan o‘sha birovdan emas, mendan so‘rayapti, men esa nima qilib qo‘yganimni o‘zimdan bilolmay o‘yda o‘tiribman, shu nima qilib qo‘yganimni bilolmay o‘yda o‘tirganim balki nima qilib qo‘yganimning o‘zidir?”[4]. Ushbu asardagi kutilmagan syujet bilan boshlangan boshlanma, kichik hajmga keng ma’no sig‘dira olish kabi xususiyatlar novellaga xos jihatlarni ifodalasa, syujetni bir ipga mahorat bilan tiza bilish yozuvchi mahoratini ko‘rsatib beradi.

Xulosa qilib aytganda, novella janri kichik epik janrlardan biri sifatida jahon adabiyotida o‘z o‘rniga ega shakllardan biri sifatida e’tirof etiladi. O‘zbek adabiyotida esa keng ko‘lamda o‘rganilmagan, ayrim ijodkorlar ijodida kuzatish mumkin bo‘lgan hodisalardan biri, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. -Toshkent: “Navoiy universiteti” 2018.B.374.
2. Eshonqul Nazar. Tafakkur jurnali, 2-son, 2009. – B.77.
3. Solijonov Y. Hozirgi adabiy jarayon. – Toshkent: “Innovatsiya-Ziyo” 2020. - B.55.
4. Ahmad A’zam “Nima qilib qo‘ygan ekanman?”. ziyouz.com
5. Umida, R. (2024). THE RELEVANCE OF RHYTHM IN PROSE FICTION. *Journal of Modern Educational Achievements*, 1(1), 288-294.

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

6. Omanova, M. (2024). Bahouddin Naqshband to‘g‘risidagi ma’lumotlar aks etgan asarlar. “O‘zbek adabiyotshunosligining dolzarb masalalari”. – Toshkent: 139-146.
7. Omanova, M. A. (2023). Perfect human interpretation in Alisher Navoy’s creation. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(1), 346-347.